

Maxsulotni sotish va xarid qilish va xizmat ko'rsatish  
SHARTNOMASI № 6

2022 й. «5» 8

28-5-210-XT/2022-  
COH

G'ozg'on shahar.

Ushbu shartnoma bir tomondan Nizom ga asosan ish yurituvchi NUR GOLDEN FRUITS (kelgusida «maxsulot etkazib beruvchi xizmat ko'rsatuvchi» deb ataladi) nomidan raxbar S.Hamrayev va ikkinchi tomondan Nizomga asosan ish yurituvchi G'ozg'on shahar Xalq ta'limi bo'limi (kelgusida «buyurtmachi» deb ataladi) nomidan raxbar A.Qarshiyev bir tomonidan kuyidagilar tugrisida tuzildi:

**1. SHartnoma predmeti**

1,1 «Maxsulot etkazib beruvchi xizmat kursatuvchi» maxsulotni ushbu shartnoma shartlari buyicha etkazib berishga, «buyurtmachi» esa uni kabul kilib olishga majbur.

Maxsulot assortimenti va baxosi (spetsifikatsiyasi)

№	Maxsulot va xizmat nomi	Ulchov birligi	mikdori	Narxi	summasi
1	XTBga qarashli 2-umumta'lim maktabiga isitish qozonlarini yetkazib berish va o'rnatish	xizmat	6	13 475 777	80 854 662

Shartnomaning umumiy summasi 80 854 662 (Sakson million sakkiz yuz ellik to'rt ming olti yuz oltmish ikki) so'mni tashkil etadi.

**2. Baxo va to'lov tartibi**

2,1 Maxsulot uchun tulov pul utkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

2,2 «Buyurtmachi» shartnoma umumiy summasining 30 %, ya'ni 24 256 398,6 so'mni avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 5 bank ish kuni mobaynida, qolgan qismi, ya'ni 56 598 263,4 so'mni «maxsulot yetkazib beruvchi» maxsulotni yetkazib bergan kundan boshlab 10 bank ish kuni davomida «maxsulot yetkazib beruvchi»ning bank hisob raqamiga o'tkazib berishi shart.

**3. Maxsulot yetkazib berish muddati va tartibi**

3,1 «Maxsulot yetkazib beruvchi xizmat ko'rsatuvchi» maxsulotni hisob raqamiga avans mablag'i kelib tushgan kundan boshlab 15 bank ish kunida yetkazib beradi.

3,2 Maxsulot «Maxsulot yetkazib beruvchi xizmat ko'rsatuvchi» ning transportida tashiladi.

Maxsulot hisob varoq fakturaga imzo qo'yib qabul qilib olingan vaqtdan boshlab «buyurtmachi» mulkiga aylanadi.

**4. Maxsulotni topshirish va qabul qilish**

4,1 «Buyurtmachi» vakolatli shaxsi qabul qilib olish jarayonida maxsulotning ishga yaroqliligini, sifati, miqdori jixatidan shartnomaga mos kelishini tekshirib olishi lozim. Maxsulot tuliq qabul kilib olingandan so'ng maxsulotni saqlash javobgarligi «buyurtmachi» vakolatli shaxsi zimmasiga o'tadi.

**5. Maxsulot sifati**

5,1 Maxsulot sifati Uzbekiston Respublikasi standarti talablariga javob berishi shart.

5,2 Maxsulot transportda tashib ketish uchun qulay qilib jixozlanishi lozim.

**6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

6,1 «Buyurtmachi» shartnomaning 2.2 bandida kursatilgan tulovni belgilangan muddatdan kechiktirib yuborgan xolatda, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan tulov summasining 0,4 %i miqdorida penya tulaydi. Lekin tulangan penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan tulov summasining 50 %i dan oshib ketmasligi lozim.

6,2 «Maxsulot etkazib beruvchi xizmat kursatuvchi» maxsulotni shartnomaning 3.1 bandida kursatilgan muddatda etkazib bermagan takdirda, kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan maxsulot qiymatining 0,5 %i miqdorida penya tulaydi. Lekin tulangan penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan maxsulot qiymatining 50 %i dan oshib ketmasligi lozim.

**7. Nizolarni xal etish tartibi**

7,1 Nizoli vaziyatlar tomonlarning uzaro kelishuvi asosida xal etiladi.

7,2 Nizoli vaziyatlar tomonlarning uzaro kelishuvi asosida xal etilmagan takdirda Xujalik sudi orkali xal etiladi.

## 8. SHartnomaning amal kilish muddati

8,1 SHartnoma ikki tomonlama to'liq tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi xamda «31» Dekabr 2022 yilgacha haqiqiy deb xisoblanadi.

## 9. Fors – major

9,1 Agarda ushbu shartnoma shartlarini bajarishga xalal beruvchi engib bulmas kuchlar – ombargo, urush e'lon kilinishi, zilzila, suv toshkini, yongin va boshka tabiiy ofatlar yoki Uzbekiston Respublikasi tomonidan chikarilgan aloxida karor va farmoyishlar yuzaga kelsa, u xolda tomonlar ushbu engib bulmas kuchlar ta'siri vaktida shartnomaviy javobgarlikdan ozod etiladilar.

## 10. KORRUPSIYAGA QARSHIKELISHUV

10.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, kaffillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

10.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin. Mazkur talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar aniqlanganda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

10.3 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqliemas.

## 11. Qo'shimcha shartlar

11,1 SHartnoma bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nuxxada tuziladi xamda tomonlarning xar birida 1 (bir) nuxxadan saklanadi. Agar tomonlardan biri uziga tegishli nuxxani yukotgan takdirda kolgan nuxxaning kseronuxxasi xakikiy deb xisoblanadi.

11,2 Tomonlarning yuridik manzillari yoki bank rekvizitlari uzgargan takdirda 3 bank ish kuni davomida bir-birlarini yozma ogoxlantirishlari shart.

11,3 Tomonlardan biri ikkinchisining yozma ravishda tasdiklangan rozilik xatisiz shartnoma buyicha xukuk va majburiyatlarni uchinchi shaxs zimmasiga utkazolmaydi.

SHartnomaga xar kanday kushimcha uzgarishlar yozma ravishda, ikki tomonlama tulik tasdiklangandan sung xakikiy xisoblanadi.

## 12. Taraflarning yuridik manzilgoxlari va to'lov rekvizitlari

### “Ijrochi”

**OOO N U R GOLDEN FRUITS**

**Manzili:** Nurota t T.Bozorov ko'chasi 21uy

**Tel:** 97-795-01-10

**INN:**306364437 **MFO:** 00196

**H/R:** 20208000005062459001

**Raxbar:**  Hamroyev



### “Buyurtmachi”

**G'ozg'on shahar XTB**

**Manzili:** G'ozg'on sh A.Temur ko'chasi 1uy

**Tel:** 93-000-31-27

**INN:**207332526 **MFO:** 00014

**H/R:** 10022860124127002100075001

**Bo'lim mudiri:**

A.Qarshiyev



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№

**1. Loyihaning turi:**

Shartnoma

**2. Loyihaning nomi:**

Oldi-sotdi shartnomasi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi, 05.08.2022 yil

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

**XULOSA:**

G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limi hamda "NUR GOLDEN FRUITS" ma'sulyati cheklangan jamiyati o'rtasidagi umumiy so'mmasi 80 854 662 (sakson million sakkiz yuz ellik to'rt ming olti yuz oltmish ikki) so'mlik G'ozg'on shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabiga 6 ta 13 475 777 so'mlik isitish qozonlarini yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartiblar asosida (elektron savdodan eng yaxshi taklifni tanlash yo'li orqali) tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yorlari va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**F.Jumayev  
05.08.2022 yil**